



## PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF A PERSON'S CREATIVE ABILITY

D. G. Mukhamedova

Professor, Doctor of Psychological Sciences

B. X. Nuriddinov

National University of Uzbekistan Psycholog (By type of activity) 1st year master's degree the fourth largest industry in the world today the engine of civilization is the mover the power is creativity.

### Annotation

The article presents views on the results of research and ideas on creative thinking, the psychological and pedagogical characteristics of creative thinking ability, as well as the psychological analysis of creative ability.

**Keywords:** creativity, creative thinking, creativity, fluency, flexibility, originality, component, approach.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish psixologik jihatdan anglash lozim. Kreativlik so'zi (inglizcha "creative"- yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo'lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatidir. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, o'zgacha hisoblangan g'oyalari ishlab chiqish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tubzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan kompleks fikrlash, bir nuqtaga turli xil tomondan yondashishni anglatadi Amerikalik olim D. Veksler "Kreativlik fikrlashning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" - deb ta'rif beradi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlilikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P. Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi.

V. Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo'lgan ob'ektga qarab baholanmaydi, de b aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uyg'unligi». Ko'rinish turganidek, kreativlik masalasi ilmfanda asosan psixologik tushuncha (kategoriya) sifatida ta hlil etilgan hamda uning bevosita inson psixikasi bilan bog'liq ekanligi e'tirof etilgan. Agarda til v



a nutq inson psixikasining mahsuli sifatida namoyon bo`ladigan bo`lsa, uning shakllanishi va rivojlanishi pedagogik muammosifatida ham tahlil etishni taqozo etadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma`naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo`lgan bilimlarning ko`pqirrali ekanligida emas, balki yangi g`oyalarga intilish, o`rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o`zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo`ladi. Kreativ bo`lish bizning nazarimizda esa, kreativ shaxs bo`lish bugungi kundan bir qancha afzallikkarga ega bo`lish, masalan, jamiyatdagi boshqa shaxslardan ajralib turish, boshqalarga qaraganda o`zgacha muloqotdosh bo`lish, hayot qiyinchilikllarida oson ikki tomonlama manfaatli, nooadatiy holatda yechim topa olishlik orqali kreativlik qobiliyati namoyon bo`lishi lozim. Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o`qituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi. Endilikda kreativ fikrlash va ko`nikimalari mohiyatiga batafsil to`xtalsak. Har bir tushunchani kelib chiqish zamiri sohibi bo`lgani singari kreativlik tushunchasini ham otasi mavjud. “Kreativlik otasi” mashhur Pol Torrans hisoblanadi. U to`rtta kreativlik ko`nikmasini aniqlagan (1987a). Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko`nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

**1. Ravonlik.** Ko`plab g`oyalarni o`ylab topish ko`nikmasi ko`p degan so`zga asoslanadi. Kreativ ravonlikning asosiy maqsadi bo`lajak har bir kasb egasida emas, balki bir nechta g`oyalarni o`rtaga tashlash ko`nikmasini shakllantirishdan iborat. Masalan: Ko`p hollarda o`qituvchilar bo`lajak pedagoglarda ravonlik ko`nikmasini shakllantirish uchun “aqliy hujum” strategiyasidan foydalanadilar. Bu mashq og`zaki yoki yozma (g`oyalarni qog`ozga yozib, keyingi talabaga qo’shimcha g`oyalalar kiritish uchun uzatishi lozim) tarzda bajarilishi mumkin. “To’xta va boshla” mazmundagi “Aqliy hujum” mashqida Bo`lajak pedagoglar g`oyalarni o`rtaga tashlab, ularni tahlil qiladilar va baholaydilar, so’ngra bu yana bir bor qaytariladi.

**2. Moslashuvchanlik.** Turli g`oyalarni o`ylab topish ko`nikmasi o`zgartirish degan so`zga asoslanadi. O’quvchilar keng fikr yurita olsalar, vaziyat va muammoga ham bir qancha va turli echim topadilar. Kreativ shaxslar ham moslashuvchanlikni ular turli nuqtai - nazar va fikrlarni inobatga olganlari va ularni tahlil qilganlarida, turli fikrlarni bir-biri bilan solishtirganda va ularning o’xshash va farqli tomonlarini topganlarida va nihoyat muvafaqqiyatga erishib, yaxshi natijalar ko’rsatayotganlarida kuzatish mumkin. Moslashuvchanlik kreativ ko`nikmalarni shakllantirishda analiz-sintez va taqqoslash orqali aqliy taraqqiyotda ahamiyatga ega.

**3. O’ziga xoslik.** Boshqalarga o’xshamagan, ajralib turuvchi g`oyani o`ylab topish ko`nikmasi noyob degan so`zga asoslanadi. O’ziga xoslik noodatiy g`oyalalar o`ylab topish ko`nikmasidir. Masalan: o’quvchilar o’zlarida avval moslashuvchanlik va ravonlik ko`nikmalarini shakllantirib, so’ng nooodatiy, original g`oyalarni kashf etish ko`nikmasini hosil qilishlari lozim. Ravon fikrlash ko`nikmasi o’quvchilarda originallikni rivojlantirishda boshlang’ich va asos soluvchi qadam bo’lib xizmat qiladi. Agarda talaba ko`p g`oyalarni o`rtaga tashlasa, ulardan bir yoki ikkitasi albatta boshqa talabaning g`oyasi ham bo`ladi (Simonton, 1999). Bundan ko’rinib turibdiki kreativlik o’ziga xoslik ko`nikmasini shakllanishida ham muhim hisoblanadi. Misol o’rnida Google kompaniyasi tarixiga yondashsak; IBM prototipi hisoblangan Kompyuter-Tabuling-Yozish Kompaniyasi (CTR) 1911 yilda Charlz Flint tomonidan tashkil etilgan bo’lib, u biznesni birlashtirish istagi tufayli "ishonuvchilarning otasi" sifatida



tanilgan. Flintning yirik tashkilotlarni afzal ko'rishi asossiz emas edi: bunday korxonalarini boshqarish katta foyda keltirdi va biznesni kengaytirishga olib keldi.

Bu yerda o'ziga xoslik kerakli joyda va vaqtida so'ngi qarorni qabul qilishlikdadir.

**4. Yaratuvchanlik.** "Yaratuvchanlik" tushunchasi boshqa bir g'oyani rivojlantirish va uni kengaytirishga asoslanadi, ya'ni berilgan vazifalar anu shu g'oya asosida bajariladi. Bir g'oyani kengaytirish uchun bo'lajak pedagoglar mavzu, muammo yoki vazifa mazmunini chuqur anglab yetishlari va talab etilgan darajada bilimga ega bo'lishlari lozim. Shunisi ahamiyatliki, yaratuvchanlik har qanday soha rivojida global darajaga chiqadi. Chunki, yuksalishda, ma'lum bir taraqqiyot zonasida pozitsiyani egallashda e'tibor beriladigan asosiy masala sifat va miqdor hamda uning so'ngi natijasi hisoblanadi. Masalan, "1880-yillarda The Tabulating Machine Company-ning yaratuvchisi Herman Xollerit punch-karta uskunalarini ixtiro qildi. Yorliqlar deb nomlangan bunday qurilmalar ma'lumotlarni hisoblash bilan bog'liq ko'plab operatsiyalarni bajarishga qodir edilar. Bollimor Sog'lijni saqlash boshqarmasida Xollerit tomonidan yaratilgan talablardan muvaffaqiyatli foydalanish, shuningdek, harbiy bo'limning bosh jarrohi Xolleritni ro'yxatga olish jarayonida kelajakda foydalanish uchun asboblarni tanlash bo'yicha tanlovda ishtirok etishga undadi. Musobaqa davomida ma'lum bo'lishicha, ko'rsatilgan hisob-kitoblarni amalga oshirishda, Xolleritning uskunalari raqiblarining qurilmalariga qaraganda ancha kam vaqt sarflagan, natijada yaratuvchi bilan shartnomaga tuzilgan. Hollerit tomonidan ixtiro qilingan tabulyatorlar 1890 yilda AQSh aholisini ro'yxatga olishda foydalanish uchun tanlangan". Bu yerda yaratuvchanlikni asosiy komponenti bugun va kelajak o'rtasidagi muvofiqlik va uyg'unlikni anglay olishidadir.

Rivojlanish zonasida har qanday sifatlarni yuzaga chiqishini chekllovchi omil mavjud. Muayyan omillar shaxsda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shaxs kreativligini psixologik tahlil qilishda shu negativ ahamiyatga ega omillarga alohida e'tibor qaratish lozim. Quyida keltirilgan omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) O'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) Fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) Shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) Boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) Har qanday holatda ham faqat yutuqni o'yash .

Shaxs yuqoridagi keltirilgan sifatlardan cheklansa uning faoliyati kreativlikni ijobiy sifatlari bilan boyitilsa yaratuvchanlik hususiyatlari Sechenov tabiri bilan "Shartli refleks" larga aylanib boradi. So'ngra faoliyatda albatta, o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Kreativlik qobiliyati shakllanishida ma'lum bir psixik komponentlar ta'sir o'tkazadi. Bular yaratuvchanlikni yuzaga kelishi va rivojlanishida ahamiyatli fundament bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkonini beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Ahloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli).



Har bir shaxsning kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

## Kreativ layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat

Kreativlik maqsad	Kreativ ifodali akt
Ijodiy intilish	Kreativ o'z-o'zini boshqarish
Kreativ (ustanovka) qurish	Kreativ faollik
Kreativ yo'nalish	Kreativ intilishlar darajasi

Kreativlik potentsiali uning umumiyligini xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Kreativlik potensialini misol o'rnida pedagoglarda olishimiz mumkin. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

## Pedagog kreativlik potentsialiga ega bolishi uchun esa kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir shaxsning o'zini - o'zi rivojlantirishi va o'zini - o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Odatda shaxsning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik va psixologik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Har qanday kreativlik zamirida ma'lum bir potensiya yotadi. Xususan, shaxsning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:

**Maqsadli-motivli yondashuv** (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi); **Mazmunli yondashuv** (o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi);

**Tezkor faoliyatli yondashuv** (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi);



**Refleksiv baholash** (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z- o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi);

"Kreativlik ko'chuvchanlik xususiyatiga egadir. Kreativ bo'lism uchun shaxs ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu har bir shaxs fenomeniga taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash kelajak insonlarini noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyotchilarining ishlari kelajak shaxslarida kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda dastur sifatida xizmat qiladi.

Tomas Edison "Kreativlik — g'ayriixtiyoriy jarayon", deydi. Lekin har kuni ko'plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g'ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi "sehrli tayoqcha" yo'q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o'ylashiga ko'maklashadigan ko'plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Jorj Bernard Shou hazillashib shunday deydi: "Ko'pchilik yiliga ikki-uch marta o'laydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi — haftada bir yoki ikki marta o'ylaganim". Demak, xayolga kelgan yangi fikrlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, o'ylash uchun imkon yaratish muhim. Keltirilgan psixologik tahlil natijalaridan hulosa qilish mumkinki, kreativlik bugungi kunda har bir shaxsdan talab qilinadigan kriteriya sanaladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.S.Jumanova Ma'rifat gazetasi
2. Usmonboyeva M.To'rayeva A.Kreativ pedagogika.-Toshkent:TDPU,2016.-B.6.
- 3.F.M.Zakirova, Sh.X.Pozilova. O'qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi. Monografiya.T/20018
- 4.Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Fayzullayeva N. "Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi" / Uzlucksiz ta'lim jurnali. – T.: 2006. 6- son. -102-b.
- 6.www.ziyonet.uz
- 7.www.edu.uz
- 8.www.pedagog.uz
- 9.www.tdpu.uz
- 10.<https://bialgampt>